

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

2024-yilda kompleks faoliyat to‘g‘risida

YILLIK HISOBOT

O‘quv, ilmiy-tadqiqot, ma‘naviy-ma‘rifiy va moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha

Hisobot universitet Ilmiy kengashining 2024-yil 24-dekabrda 6-sonli majlisida muhokama qilingan va ma‘qullangan

Chirchiq • 2024

Taqdimot tuzilmasi

Hisobotning barcha asosiy bo‘limlari va 2025-yil uchun chora-tadbirlar dasturi qamrab olingan.

1 Strategik asoslar va ijro mexanizmi

2 O‘quv ishlari va ta’lim sifati

3 Ilmiy-tadqiqot faoliyati

4 Ma’naviy-ma’rifiy ishlar

5 Moliya-iqtisod va moddiy baza

6 Ochiqlik, monitoring, manfaatdor tomonlar

7 2024-yil umumiy tahlili

8 2025-yil ustuvor vazifalari

9 Chora-tadbirlar dasturi va xulosa

2024-yil umumiy ko‘rinishi

Universitet faoliyati ta’lim, fan, tarbiya va infratuzilma yo‘nalishlarida barqaror rivojlanishga yo‘naltirildi.

21 980

jami talaba

482

asosiy shtatdagi professor-
o‘qituvchi

48%

ilmiy salohiyat

118

amaliyotga joriy etilgan ilmiy
natija

4,8 mlrd

so‘mlik ta‘mirlash va
jihozlash ishlari

Strategiya

Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri

Rejalar

Tarkibiy bo‘linmalar yillik vazifalari

Ijro

O‘quv, ilmiy, ma’naviy va moliyaviy
yo‘nalishlar

Monitoring

HEMIS, kengashlar, hisobotlar

Tahlil

Kelgusi yil chora-tadbirlari

Rivojlantirish strategiyasi va missiya

2024-yilgi faoliyat universitetning uzoq va o'rta muddatli strategiyasiga muvofiq tashkil etildi.

Missiya va strategik maqsad

- Zamonaviy ta'lim dasturlari, ilm-fan, amaliyot yutuqlari va raqamlashtirish texnologiyalarini uyg'unlashtirish.
- Ilg'or xorijiy tajribalar asosida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish.
- Universitetning xalqaro imijini shakllantirish va ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish.


Rivojlanish modeli

- Universitet 3.0 modelidan Universitet 4.0 modeliga o'tish.
- Ta'lim, fan, innovatsiya va jamiyat bilan raqamli o'zaro aloqa integratsiyasi.
- Sifatli ta'lim, ilg'or tadqiqot va innovatsion ekotizimni shakllantirish.

Rivojlantirish rejasining ijro mexanizmi


Boshqaruv modeli mas'uliyat, resurslar va monitoringning uzviy bog'liqligiga tayandi.

Universitet faoliyati strategik maqsadlar bilan uyg'un holda ta'lim sifati, ilmiy natijadorlik, talabalarning ijtimoiy-ma'naviy rivojlanishi va moliyaviy-xo'jalik barqarorligini ta'minlashga yo'naltirildi.



O'quv ishlari va ta'lim sifatini oshirish

2024/2025-o'quv yilida o'quv jarayoni normativ talablar, kredit-modul tizimi va dasturlarni takomillashtirish asosida tashkil etildi.




- Magistratura bo'yicha 23 ta o'quv reja ishlab chiqildi.
- 8 ta bakalavriat yo'nalishi va 2 ta magistratura mutaxassisligi ta'lim dasturlari TOP-300 xorijiy OTMLar tajribasi asosida takomillashtirildi.
- 53 ta fan dasturi kadrlar buyurtmachilari bilan kelishilgan holda ta'lim jarayoniga tatbiq etildi.

Talabalar kontingenti

2024/2025-o'quv yilida universitetda jami 21 980 nafar talaba tahsil oldi.

Ta'lim shakli	Talabalar soni
Kunduzgi	9 158
Sirtqi	10 266
Kechki	2 106
Qo'shma dastur	93
Magistratura	397



21 583

bakalavriat bosqichida

397

magistratura bosqichida

- Bakalavriat talabalarining 9 158 nafari kunduzgi, 10 266 nafari sirtqi, 2 106 nafari kechki ta'lim shaklida o'qidi.
- 93 nafar talaba qo'shma ta'lim dasturida, 397 nafar talaba magistratura bosqichida tahsil oldi.

Professor-o'qituvchilar va o'quv yuklamasi

O'quv jarayoni 590 939 soat o'rtacha o'quv yuklama asosida tashkil etildi.

590 939

soat o'quv yuklama

482

asosiy shtatdagi professor-o'qituvchi

34

fan doktori, professor

147

PhD, dotsent

Tarkib	Soni
DSc/professor	34
PhD/dotsent	147
Boshqa professor-o'qituvchilar	301



2024/2025-o'quv yilida professor-o'qituvchilarning tayanch ma'lumotlari tegishli dars beradigan fanlariga mosligi ta'minlandi.

HEMIS tizimi va akademik boshqaruv

O'quv jarayoni raqamli ma'lumotlar, elektron jadvallar va tizimli monitoring orqali boshqarildi.

572

o'quv reja

755

akademik guruh

1 504

fan

21 980

talaba ma'lumoti

- 482 nafar asosiy shtatdagi professor-o'qituvchi, 221 nafar o'rindosh professor-o'qituvchi va 362 nafar ishchi-xodim ma'lumotlari tizimda shakllantirildi.
- Dars jadvallari, nazorat jadvallari, stipendiya to'lovlari, moddiy rag'batlantirish va kontrakt shartnomalarini rasmiylashtirish ishlari elektron tartibda olib borildi.
- Kredit-modul tizimi talablariga muvofiq akademik jarayonlar yagona axborot muhitida muvofiqlashtirildi.

Baholash shaffofligi va axborot-resurs markazi

Imtihon jarayonlari xolislik tamoyili asosida tashkil etildi, o'quv resurslari boyitildi.

Baholash jarayoni

- Yakuniy nazorat va apellyatsiya jarayonlari ovozli kuzatuv kameralari bilan jihozlangan auditoriyalarda o'tkazildi.
- O'quv-uslubiy boshqarma, ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi, komplaens xizmati va bevosita dars bermagan professor-o'qituvchilar ishtirokida ishchi guruhlar faoliyat yuritdi.
- Manfaatlarni kamaytirish va talabalar murojaatlariga asosli javob berish imkoniyati kuchaytirildi.

Axborot-resurs markazi

- 2024-yilda 79 nomdagi 7 920 nusxa darslik va 138 nomdagi 13 800 nusxa o'quv qo'llanma chop ettirildi.
- ARM fondida jami 182 820 nusxada 50 582 nomdagi adabiyot mavjud.
- 18 911 ta elektron adabiyot va 1 091 ta audio adabiyot mavjud.
- Elektron o'quv zalida 121 ta kompyuter lokal internet tarmog'iga ulangan.

Qo'shma ta'lim dasturlari va amaliyot

Talabalar kasbiy tayyorgarligi xalqaro hamkorlik va amaliy muhit bilan bog'landi.

5

bakalavriat yo'nalishi bo'yicha
qo'shma dastur

92

talaba 3+1 shaklidagi dasturda

1

magistratura talabasi 1+1 dasturda

4+2

talabalar amaliyoti tartibi

- Belarus Respublikasidagi A.A.Kuleshov nomidagi Mogilev davlat universiteti bilan hamkorlik davom ettirildi.
- Amaliyotlar kasbiy tayyorgarlikni bevosita amaliy muhit bilan bog'lashga xizmat qildi.
- Xalqaro tajriba ta'lim dasturlarini takomillashtirishda metodik asos sifatida qo'llandi.


Ilmiy-tadqiqot faoliyati va salohiyat

2024-yilda ilmiy faoliyat pedagogik ta'lim innovatsion klasteri, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida olib borildi.



Ilmiy daraja	Soni
DSc	44
PhD	186
Boshqa asosiy shtat	249

- Asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilardan 44 nafari DSc, 186 nafari PhD hisoblanadi.
- Ilmiy salohiyatning 48 foizga yetgani universitet ilmiy ekotizimi shakllanayotganini ko'rsatadi.
- Keyingi bosqich uchun xalqaro nashrlar, tijoratlashirish va laboratoriya bazasi ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi.



Xalqaro grantlar va ilmiy loyihalar

Universitet xalqaro moliyalashtirish imkoniyatlaridan foydalangan holda yirik ilmiy loyihalarni amalga oshirdi.

450 000 USD

REP-04032022/206: optoelektronik tarmoqlarda optik garmonik ishlab chiqarish va soliton tashish

200 000 USD

REP-05032022/235: grafenda relyativistik sun'iy atomlar va vakuum effektlari

355 000 CHF

Shveysariya Milliy ilmiy fondi xalqaro loyihasi

- Ilmiy loyihalar fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirishga xizmat qildi.
- Xorijiy universitetlar va ilmiy markazlar bilan hamkorlik ilmiy mavzularni xalqaro darajaga olib chiqdi.
- Grantlar bilan ishlash kelgusida ilmiy-tadqiqot samaradorligini oshirishning muhim resursi sifatida qaraldi.

Ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etish

2024-yilda 118 ta ilmiy-tadqiqot natijasi amaliyotga joriy qilindi.

118

amaliyotga joriy etilgan ilmiy natija

- Kimyo, biologiya, qishloq xo‘jaligi, geografiya, huquqiy madaniyat, adabiyotshunoslik, ijtimoiy-ma’naviy tarbiya va boshqa yo‘nalishlar qamrab olindi.
- Ilmiy ishlanmalar ishlab chiqarish va amaliy sohalar ehtiyojlari bilan bog‘landi.
- Fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi universitet ilmiy faoliyatining amaliy qiymatini oshirdi.

Tadqiqot

Kafedra va ilmiy guruhlar

Sinov

Laboratoriya va hamkor tashkilotlar

Joriy etish

Ishlab chiqarish va amaliy muhit

Tahlil





Samaradorlik va hujjatlashtirish

Rivojlantirish

Tijoratlashtirish imkoniyatlari

Ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash

Ilmiy kengashlar faoliyati dissertatsiya himoyalari va attestatsiya jarayonlarini tizimli tashkil etdi.



Himoyalar	Soni
PhD	22
DSc	8




- Attestatsiya hujjatlarini qabul qilish, ilmiy seminarga yuborish, himoyaga tavsiya etish va rasmiy e’lon qilish jarayonlari belgilangan tartibda amalga oshirildi.
- Ilmiy kengashlar universitetda yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashning muhim mexanizmi sifatida faoliyat yuritdi.

Iqtidorli talabalar bilan ishlash

“Talabalar akademiyasi” va “Iqtidor” tanlovi talabalarni ilmiy va innovatsion faoliyatga jalb qilish mexanizmi bo‘ldi.

Talabalar akademiyasi talaba-yoshlarni ilmiy-innovatsion faoliyatga jalb qilish, ilmiy g‘oyalar, loyihalar va ishlanmalarni rivojlantirish hamda tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qildi.



Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va yoshlar bilan ishlash

Talaba-yoshlarning shaxsiy-kasbiy rivojlanishi, ijtimoiy faolligi va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga e'tibor qaratildi.

Tarbiyaviy yo'nalishlar

- Vatanparvarlik va milliy qadriyatlarga sadoqat.
- Huquqiy madaniyat va diniy bag'rikenglik.
- Sog'lom turmush tarzi va profilaktik tadbirlar.
- Kitobxonlik, teatr, ijodiy tanlovlar va intellektual o'yinlar.

Tashkiliy yondashuv

- Talabalar bilan individual ishlash mexanizmlarini takomillashtirish.
- Ta'lim-tarbiya jarayonlariga moslashuvni qo'llab-quvvatlash.
- Bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish.
- Talabalar turar joylarida tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar qamrovi

Tadbirlar bayram, targ'ibot, profilaktika, ijod, sport va madaniy meros yo'nalishlarini qamrab oldi.

3 567

“Mehr” teatr studiyasi spektakli qamrovi

150+

diniy bag'rikenglik davra suhbatlari ishtirokchilari

250

harbiy-vatanparvarlik uchrashuvlarida qayd etilgan qamrov

135

ayrim harbiy qism tadbirlari qamrovi

- “14-yanvar Vatan himoyachilari kuni” tadbirlari, harbiy qismlarga tashriflar va “Xalq va armiya bir tan-u bir jondir” shiori ostidagi uchrashuvlar tashkil etildi.
- “Navoiy va Boburxonlik” haftaliklari, Adiblar xiyoboniga sayohatlar, “Xon atlas” haftaligi, muzeylarga tashriflar, “Hosil bayrami” va “Uch avlod uchrashuvi” kabi tadbirlar o'tkazildi.
- Giyohvandlikka qarshi kurash, OITS va OIV profilaktikasi, axborot xavfsizligi, Konstitutsiya va qonun ustuvorligi kabi mavzular yoritildi.

Sport, madaniyat va sog‘lom turmush tarzi

Tadbirlar talabalar o‘rtasida jamoaviylik, sog‘lom raqobat va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirdi.

- Shaxmat, mini futbol, basketbol, voleybol, dzyudo, arqon tortish va tosh ko‘tarish musobaqalari tashkil etildi.
- Kitobxonlik, teatr, kino, ijodiy bellashuvlar va “1-kurs maktabi” loyihasi faol amalga oshirildi.
- Talabalar axborot-resurs markazi, laboratoriyalar, muzeylar, kreativ park va IT park imkoniyatlari bilan tanishtirildi.
- Tadbirlar talabalar ehtiyojiga yo‘naltirilgan holda mazmunan keng qamrovli va shaklan xilma-xil tashkil etildi.

Moliya-iqtisod faoliyati va moddiy-texnik baza

2024-yilda moliyaviy-xo‘jalik ishlarida ta’lim infratuzilmasini mustahkamlashga e’tibor qaratildi.

**4 mlrd 800 mln
so‘m**

qurish-ta’irlash ishlari va moddiy-texnik
jihozlar xaridi

2024

belgilangan ish reja bo‘yicha vazifalar
bajarildi

2025

kelgusi yil uchun ish reja tayyorlandi

TTJ

o‘quv va talabalar turar joylari
yangi o‘quv yiliga tayyorlandi

- Yillik xarajatlar smetasi ishlab chiqildi va belgilangan tartibda tasdiqlandi.
- Kommunal xizmat ko‘rsatish tashkilotlari bilan shartnomalar rasmiylashtirildi.
- Budjetdan tashqari tushumlarni oshirish, hududlarni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirildi.
- Elektr, tabiiy gaz, issiq va sovuq suv, aloqa hamda isitish tizimlari holati tekshirildi va zarur ta’irlash ishlari tashkil etildi.

Infratuzilma va qo'llab-quvvatlovchi sharoitlar

Moddiy-texnik baza rivojlantirish rejasidagi ta'lim sifati, raqamlashtirish va ijtimoiy muhit maqsadlari bilan uyg'unlashdi.

2024-yilda bajarilgan ishlar

- Fakultet o'quv binolari deyarli to'liq ta'mirdan chiqarilmoqda.
- O'quv va talabalar turar joyi binolari yangi o'quv yiliga tayyorlandi.
- Yong'in xavfsizligi, isitish va kommunal tizimlar holati nazorat qilindi.

Keyingi bosqich vazifalari

- O'quv laboratoriyalarini zamonaviy uskunalar bilan bosqichma-bosqich jihozlash.
- Ilmiy-tadqiqot uskunalarini uchun homiylik, grant va xalqaro moliyaviy manbalarni jalb qilish.
- Stipendiya tayinlash mexanizmlarini o'rganish va takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash.

Ochiqlik, monitoring va manfaatdor tomonlar

2024-yilda hisobotlar kengashlar va tarkibiy bo'linmalar muhokamasiga kiritildi.

- Ilmiy-tadqiqot faoliyati bo'yicha yillik hisobot universitet Ilmiy kengashining 2024-yil 24-dekabrda 6-sonli majlisida muhokama qilingan va ma'qullangan.
- Kadrlar buyurtmachilari bilan kelishilgan fan dasturlari, korxonalar va tashkilotlar bilan ilmiy-amaliy hamkorlik hamda qo'shma dasturlar manfaatdor tomonlar bilan ishlash natijalaridir.
- Monitoring HEMIS, o'quv nazorati, imtihonlar shaffofligi, ilmiy kengashlar, ma'naviy tadbirlar qamrovi, moliyaviy hisobotlar va choraklik muhokamalar orqali yo'lga qo'yildi.

Ochiqlik

Hisobotlar va kengash muhokamaları

Manfaatdor tomonlar

Kadrlar buyurtmachilari va hamkor tashkilotlar

HEMIS

Akademik monitoring

Ilmiy kengash

Dissertatsiya va ilmiy faoliyat nazorati

Moliyaviy hisobot

Choraklik va yillik tahlillar

2024-yil natijalarining umumiy tahlili

Hisobot yilida universitet faoliyati to'rt asosiy yo'nalishda ijobiy natijalar berdi.

O'quv ishlari

Ta'lim dasturlari yangilandi, HEMIS orqali raqamli boshqaruv kuchaydi, baholash shaffofligi ta'minlandi.

Ma'naviy ishlar

Vatanparvarlik, huquqiy madaniyat, milliy qadriyat, sog'lom turmush tarzi, kitobxonlik va ijodkorlik yo'nalishlari rivojlantirildi.

Ilmiy faoliyat

Ilmiy salohiyat 48 foizga yetdi, grantlar bajarildi, dissertatsiya himoyalari va 118 ta joriy etish amalga oshirildi.

Moliya-iqtisod

4,8 mlrd so'mlik ta'mirlash va jihozlash ishlari bajarildi, moddiy-texnik baza mustahkamlandi.

Kelgusi davr uchun ustuvor vazifalar

2025-yilda rivojlanish sur'atini oshirish uchun ta'lim, fan, tarbiya va moliyaviy barqarorlik yo'nalishlari izchil davom ettiriladi.

Ta'lim va raqamli muhit

- Ta'lim dasturlarini xalqaro tajriba, mehnat bozori va kadrlar buyurtmachilari fikrlari asosida muntazam qayta ko'rib borish.
- Masofaviy va aralash ta'lim elementlarini bosqichma-bosqich kengaytirish.
- Virtual laboratoriyalar va raqamli ta'lim resurslarini rivojlantirish.

Fan va innovatsiya

- Xalqaro jurnallardagi nashrlar sonini oshirish.
- Grantlar bilan ishlash markaziy mexanizmini kuchaytirish.
- 5 ta ITM va laboratoriyalar faoliyatini samarali yo'lga qo'yish.
- Iqtidorli talabalarni ilmiy maktablar va startap loyihalarga jalb qilish.

2025-yil chora-tadbirlaridagi asosiy ko'rsatkichlar

Chora-tadbirlar dasturi aniq ko'rsatkichlar, muddatlar va mas'ullar asosida tuzilgan.

120

Cambridge imtihonlariga tayyorlanadigan talabalar

30

malaka oshirish yoki ilmiy stajirovkaga yuboriladigan professor-o'qituvchilar

100

Scopus va Web of Science maqolalari

9+4

xalqaro va respublika ilmiy tadbirlari

300

ilmiy faoliyatga jalb qilinadigan iqtidorli talabalar

100 kVt

qo'shimcha quyosh panellari

2025-yil uchun vazifalar ta'lim jarayonini takomillashtirish, ilmiy natijadorlik, ijtimoiy-ma'naviy muhit, moddiy-texnik baza va xalqaro hamkorlik yo'nalishlariga ajratilgan.

I. O'quv jarayonini takomillashtirish, raqamlashtirish va ta'lim sifatini oshirish

2025-yilda kompleks rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturidan.

Chora-tadbirlar nomi va asosiy bajarish muddatlari

№	Chora-tadbir	Moliyalashtirish	Muddat	Mas'ullar
1	“Xalqaro pedagog” tayyorlash o'quv kursini tashkil etish	Mablag'lar talab etilmaydi	2025/2026 o'quv yilidan boshlab	Rektor, O'quv ishlari bo'yicha prorektor
2	Professor-o'qituvchilarni malaka va tajriba orttirishlarini tizimli yo'lga qo'yish	Universitet byudjetdan tashqari mablag'lari	2025/2026 o'quv yilidan	Rektor, O'quv ishlari bo'yicha prorektor
3	Masofaviy ta'lim shaklida kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish	Mablag'lar talab etilmaydi	2025 yil may-avgust, 2025/2026 o'quv yili	Rektor, O'quv ishlari bo'yicha prorektor
4	Virtual laboratoriyalar yaratish	Universitet byudjetdan tashqari mablag'lari	2025/2026 o'quv yilidan boshlab	Rektor, O'quv ishlari bo'yicha prorektor
5	Toshkent viloyati sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlari uchun kadrlar tayyorlash	Mablag'lar talab etilmaydi	2025 yil avgust-sentyabr	Rektor, O'quv ishlari bo'yicha prorektor
6	O'zaro yaqin bakalavriyat yo'nalishlari bo'yicha qo'shimcha mutaxassislik berish tizimini takomillashtirish	Mablag'lar talab etilmaydi	2025 yil sentyabr-oktyabr	Rektor, O'quv ishlari bo'yicha prorektor
7	Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri va individual ta'lim faoliyati reytingini joriy etish	Mablag'lar talab etilmaydi	2025/2026 o'quv yilidan boshlab	Rektor, O'quv ishlari bo'yicha prorektor
8	“Aralash ta'lim” shaklining me'yoriy-huquqiy asoslarini ishlab chiqish	Mablag'lar talab etilmaydi	2025 yil avgust	Rektor, O'quv ishlari bo'yicha prorektor

II. Ilmiy-tadqiqotlarning natijadorligini oshirish va integratsiyani kengaytirish

2025-yilda kompleks rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturidan.

Chora-tadbirlar nomi va asosiy bajarish muddatlari

№	Chora-tadbir	Moliyalashtirish	Muddat	Mas'ullar
9	Iqtisodiyotning drayver sohasiga qaratilgan ilmiy tadqiqot faoliyatlarini yo'lga qo'yish	Universitet byudjetdan tashqari mablag'lari	2025 yil mart-dekabr	Rektor, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor
10	Yoshlarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb qilish orqali ilmiy salohiyatni oshirish	Mablag'lar talab etilmaydi	2025 yil fevral-dekabr	Rektor, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor
11	Doktorantlar maktabi faoliyati samaradorligini oshirish	Universitet byudjetdan tashqari mablag'lari	2025 yil fevral-dekabr	Rektor, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor
12	Scopus va Web of Science jurnallarida tadqiqot natijalarini nashr etish samaradorligini oshirish	Universitet byudjetdan tashqari mablag'lari	2025 yil fevral-dekabr	Rektor, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor
13	Xalqaro va respublika ilmiy-texnik tadbirlarni dolzarb masalalar yechimiga qaratib tashkil etish	Universitet byudjetdan tashqari mablag'lari	2025 yil fevral-dekabr	Rektor, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor
14	Tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish, sanoatga tatbiq etish va ishlab chiqarish bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish	Universitet byudjetdan tashqari mablag'lari	2025 yil fevral-dekabr	Rektor, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor
15	Ilmiy loyihalar, xalqaro grant va investitsiya loyihalarida ishtirok etish samaradorligini oshirish	Universitet byudjetdan tashqari mablag'lari	2025 yil fevral-dekabr	Rektor, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

III. Ijtimoiy-ma'naviy muhit va yoshlar bilan ishlash tizimi

2025-yilda kompleks rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturidan.

Chora-tadbirlar nomi va asosiy bajarish muddatlari

№	Chora-tadbir	Moliyalashtirish	Muddat	Mas'ullar
16	Talabalarga qisqa muddatli "Hayotga tayyorlash" kurslarini tashkil etish	Universitet byudjetdan tashqari mablag'lari	2025 yil fevral, mart va doimiy	Rektor, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor
17	Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi topshiriqlari ijrosini amalga oshirish	Universitet byudjetdan tashqari mablag'lari	Reja asosida, 2025 yil yanvar-may, doimiy	Rektor, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor
18	Mamlakatimizdagi diqqatga sazovor ob'ektlariga ichki turizmni tashkil qilish	Universitet byudjetdan tashqari mablag'lari	2025 yil aprel-may, oktyabr, noyabr	Rektor, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor
19	Talabalar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish	Mablag'lar talab etilmaydi	2025 yil davomida, har chorakda, fevral-noyabr, doimiy	Rektor, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor
20	Talabalar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish	Mablag'lar talab etilmaydi	2025 yil davomida	Rektor, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor

IV. Moddiy-texnik ta'minot va o'quv laboratoriyalari

2025-yilda kompleks rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturidan.

Chora-tadbirlar nomi va asosiy bajarish muddatlari

№	Chora-tadbir	Moliyalashtirish	Muddat	Mas'ullar
21	2500 o'rinli o'quv binosining qurilishi ishlarini yakunlash	Universitet byudjetdan tashqari mablag'lari	2025 yil davomida	Rektor, Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor
22	5-o'quv binosidagi mukammal ta'mirlash ishlarini yakunlash	Universitet byudjetdan tashqari mablag'lari	2025 yil yanvar-avgust	Rektor, Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor
23	500 o'rinli talabalar turar joyini qurish	Universitet byudjetdan tashqari mablag'lari	2025 yil fevral-dekabr	Rektor, Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor
24	O'quv binolariga qo'shimcha 100 kVt quvvatli quyosh panellarini o'rnatish	Universitet byudjetdan tashqari mablag'lari	2025 yil mart-dekabr	Rektor, Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor

V. Xorijiy ta'lim va tadqiqot muassasalari bilan hamkorlik

2025-yilda kompleks rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturidan.

Chora-tadbirlar nomi va asosiy bajarish muddatlari

№	Chora-tadbir	Moliyalashtirish	Muddat	Mas'ullar
25	Reytingi yuqori xorijiy oliygohlardan 50 nafardan ortiq professor-o'qituvchilarni jalb qilish	Universitet byudjetdan tashqari mablag'lari	2025/2026 o'quv yilidan boshlab	Rektor, O'quv ishlari bo'yicha prorektor
26	TOP xorijiy OTMlar bilan akademik talabalar almashinuvi bo'yicha hamkorlikni yo'lga qo'yish	Mablag'lar talab etilmaydi	2025/2026 o'quv yilidan boshlab	Rektor, O'quv ishlari bo'yicha prorektor
27	Xorijiy talabalarni jalb etish maqsadida yozgi va qishki maktablarni tashkil etish	Mablag'lar talab etilmaydi	2025/2026 o'quv yilidan boshlab	Rektor, O'quv ishlari bo'yicha prorektor

Xulosa

2024-yilda universitet barqaror rivojlanish yoʻnalishida faoliyat yuritdi.

Oʻquv jarayonining raqamlashtirilgani, taʼlim dasturlarining takomillashtirilgani, ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etish koʻrsatkichlari, talabalar bilan ishlashning keng qamrovli tizimi va moliyaviy-xoʻjalik ishlarining reja asosida bajarilgani universitetning 2024-yildagi faoliyati barqaror rivojlanish yoʻnalishida tashkil etilganini koʻrsatadi.

- Kelgusi davrda taʼlim dasturlarining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish muhim.
- Ilmiy natijadorlikni kuchaytirish va amaliy joriy etish koʻlamini kengaytirish zarur.
- Talabalar uchun qulay va xavfsiz taʼlim muhitini yaratish davom ettiriladi.
- Moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilish va strategik reja ijrosini ochiq monitoring qilish ustuvor vazifa boʻlib qoladi.